



THE TRADITION OF IMLA IN THE HISTORY OF HADITH SCIENCE

Makhfuza Fakhrudinovna Alimova

Candidate of Historical Sciences

International Islamic Academy of Uzbekistan

Associate Professor at the UNESCO Department of Religious Studies and Comparative Study of World Religions

E-mail: mahfuzaalimova@iiu.uz

Tashkent, Uzbekistan

Mukhriddin Khasanovich Jurayev

Denau Institute of Entrepreneurship and Pedagogy

Senior Lecturer at the Department of History and Philosophy

E-mail: muxriddin241992@gmail.com

Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Hadith, dictation, transmission, writing, narrator, session, discussion, mumli, mustamli.

Received: 24.11.25

Accepted: 25.11.25

Published: 26.11.25

Abstract: This article examines the origin, development, and institutionalization of dictation (imla') sessions, which played a crucial role in the advancement of hadith science throughout Islamic history. Based on historical sources, the study explores how the method of dictation was employed during the periods of the Companions, their Followers, and the Followers of the Followers in the process of documenting hadiths. The article analyzes the social, ethical, and methodological norms established for this practice, as well as the roles and procedures of the mumli and mustamli institutions. Special attention is given to 'Abd al-Karīm ibn Muḥammad al-Sam'ānī's work "Ādāb al-Imla' wa'l-Istimla'", one of the earliest structured treatises on the etiquette of dictation. Additionally, the continuation and evolution of this tradition in later centuries, particularly within scholarly circles and madrasas, is critically discussed. By shedding light on the emergence of a written culture of hadith transmission, this article also highlights

HADIS ILMI TARIXIDA IMLO AN'ANASI

Maxfuza Faxrudinovna Alimova*O'zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi**Dinshunoslik va jahon dinlarini qiyosiy o'rganish UNESCO kafedrası dotsenti**Tarix fanlari nomzodi**E-mail: mahfuzaalimova@iiu.uz**Toshkent, O'zbekiston***Muxriddin Xasanovich Jo'rayev***Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti**Tarix va falsafa kafedrası Katta o'qituvchisi**E-mail: muxriddin241992@gmail.com**Toshkent, O'zbekiston*

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: Hadis, imlo, rivoyat, kitobat, roviy, majlis, muzokara, mumli, mustamli.**Annotatsiya:** Ushbu maqolada islom dini tarixida hadis ilmining rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etgan imlo majlislarining kelib chiqishi, shakllanishi va institutsional tizimga aylanish jarayoni tarixiy manbalar asosida tahlil qilinadi. Maqolada sahoba, tobein va atbau't-tobein davrida hadislarni yozib olishda imlo metodidan qanday foydalanilgani, bu metodga qo'yilgan ijtimoiy, axloqiy va metodik me'yorlar, shuningdek, mumli va mustamli institutlarining vazifalari, tartibi va ijtimoiy roli chuqur o'rganiladi. Asosiy e'tibor Abdulkarim ibn Muhammad as-Sam'oniyning "Adabu'l-imlo va'l-istimlo" asariga qaratilib, bu asar ilk tartibga solingan imlo adabiyotlaridan biri sifatida tahlil etilgan. Shuningdek, keyingi asrlarda bu an'ana qanday davom etgani, ilmiy muhit va madrasalarda qanday shakllangani haqida muhim tahlillar berilgan. Maqola, hadis ilmidagi yozma rivoyat madaniyatining shakllanish jarayonini yoritish bilan birga, bu merosning zamonaviy ilmiy-uslubiy ahamiyatini ham ochib beradi.

ТРАДИЦИЯ ИМЛЯ В ИСТОРИИ НАУКИ ХАДИСОВЕДЕНИЯ

Махфуза Фахруddиновна Алимова*Международная исламоведческая академия Узбекистана**Доцент кафедры религиоведения и сравнительного изучения мировых религий ЮНЕСКО**Кандидат исторических наук*

E-mail: mahfuzaalimova@iia.uz

Ташкент, Ўзбекистон

Мухриддин Хасанович Жураев

Денауский институт предпринимательства и педагогики

Старший преподаватель кафедры истории и философии

E-mail: muxriddin241992@gmail.com

Ташкент, Ўзбекистон

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Хадис, имля, передача, запись, передатчик, собрание, дискуссия, мумли, мустамли.

Аннотация: В данной статье рассматривается происхождение, формирование и институционализация диктовочных собраний (имля), сыгравших важную роль в развитии науки хадисов в истории ислама. На основе исторических источников исследуется, как метод диктовки применялся в эпоху сподвижников (сахаба), последователей (таби'ин) и их последователей (атба' ат-таби'ин) для записи хадисов. Особое внимание уделяется социальным, этическим и методологическим нормам, установленным для этой практики, а также функциям и порядку работы институтов мумли (диктующий) и мустамли (записывающий). Особое внимание уделено труду 'Абд аль-Карима ибн Мухаммада ас-Сам'ани «Адаб аль-имля валь-истимля», который считается одним из первых систематизированных сочинений о правилах диктовки. Также проводится анализ продолжения этой традиции в последующие века в научной среде и в медресе. Освещая процесс формирования письменной культуры передачи хадисов, статья подчеркивает актуальную научно-методологическую значимость этого наследия.

Kirish. “Imlo” lug‘aviy jihatdan “cho‘zmoq” ma’nosida ishlatiladi. So‘zning “muhat bermoq, yozdirish” kabi boshqa ma’nolari ham aslida “cho‘zmoq” mazmuni bilan bog‘liqdir. Shunday ekan, bir kitobni imlo qilish – uni yozadigan kishiga uzoq vaqt mobaynida o‘qib berishni anglatadi (Shamsuddin as-Sahaviy, al-Javohir va’ d-durar, II, 295).

Imlo so‘zining asl shakli “imlol” bo‘lib, “imlo” atamasi Banu Tamim qabilasida, “imlol” esa Banu Asad tomonidan ishlatilgani rivoyat qilinadi (Shavkoniy, Fath al-qadir, I, 300). Bu ikki shakl “yozdirish” ma’nosida Qur’on oyatlarida ham uchraydi (al-Baqara 2/282; al-Furqon 25/5).

Terminologik jihatdan imlo, “bir kishining atrofida qilargana yoddan yoki yozilgan matndan biror narsani yozdirishi” ma’nosida qo’llanadi. Ushbu tarzda yozilgan asarlar “imlo” yoki uning jam shakli “amoli” (الأَمَالِي) deb ataladi. Talabaga yozdirayotgan ustoz mumli (مُمْلِي) deb, ustozning so’zlarini yozayotgan shogird esa mustamli (مُسْتَمْلِي) yoki ayrim hollarda kotib (كاتب) deb nomlanadi.

Imlo bilan bog’liq boshqa bir atama – “istimlo” (استملاء) bo’lib, bu ustozning imlo majlisida aytgan hadislarini yozish yoki ularni uzoqda bo’lganlarga yetkazish ma’nolarini bildiradi. Yozuvchilarning ko’pligi holatida esa, ustozning so’zlarini uzoqda o’tirganlarga baland ovozda yetkazib beruvchi shaxslarga mustamli yoki muballig’ (مُبَلِّغ) deb atalgan.

Imlo usuli usul al-fiqh, tafsir, arab tili va adabiyotida ham qo’llanilgan metod bo’lib, uni Abu Hanifa, Imom Shofe’iy, Shams al-a’imma as-Saraxsiy kabi yirik faqihlar, hamda Sa’lab, Ibn al-Anbary, Ibn Durayd, Abu’l-Qosim az-Zajjojiy, Abu Ali al-Qoliy, Ibn ash-Shajariy kabi mashhur tilshunoslar o’z faoliyatida qo’llaganlar.

Biroq imlo xususan hadis ilmida keng foydalanilgan muhim metod hisoblanadi. U hadis o’rganish va o’rgatishning sakkiz asosiy shaklidan biri sanalmish “samo” (سَمَاع) usuli tarkibiga kiradi va “tahdis”dan (ta’lim berish) ustun turadi (Qodiy Iyoz, al-Ilmo’, s. 69).

Chunki imlo jarayonida ustoz yozdirayotgan matnni e’tibor bilan aytadi, shogird esa e’tibor bilan yozadi, shu sababli xato ehtimoli past bo’ladi. Kerak bo’lsa, tushunarsiz joylar izohlanadi, savol-javob imkoni mavjud bo’lib, hadisni to’g’ri tushunish va asliga sodiq holda qayd etish osonlashadi.

Shuningdek, Payg’ambar Muhammad (s.a.v.)dan rivoyat qilingan hadisda aytilishicha, asr namozidan keyin o’tirib, shomgacha biror yaxshi narsa imlo qilgan kishi, Hazrati Ismoil avlodidan sakkiz kishini ozod qilgandek savob oladi (Musnad Ahmad, III, 262). Ushbu rivoyat imlo majlislarining shakllanishiga sabab bo’lgan va ayrim ulamolar imloni olimning eng sharaflı burchi deb hisoblaganlar (Suyutiy, al-Muzhir, II, 313).

Bevosita Rasululloh (s.a.v) o’zlari imlo usulini qo’llagan bo’lib, nozil bo’lgan oyatlarni vahiy kotiblariga imlo qilib yozdirgan. U zot qo’shni davlatlar hukmdorlariga yuborgan maktublari, turli vazifalar uchun tayinlangan shaxslarga yo’llagan farmonlari, tuzilgan shartnomalar matnlari, ayrim kishilarga berilgan imtiyoznomalarni ham kotiblariga imlo qilganlar.

Ummu Salama (r.a.) rivoyatiga ko’ra, bir safar Rasululloh ﷺ bir varaq (pergament) olib kelishni so’raganlar va uning har ikki tomonini to’ldirguncha Ali ibn Abu Tolibga imlo qilganlar (as-Sam’oniy, s. 12). Shuningdek, Rasululloh ﷺ Abdulloh ibn Amr ibn Os va Anas ibn Molik kabi sahobalarga huzurlarida hadis yozishga ruxsat berganlari ham imlo amaliyotining ilk misollari sirasiga kiradi.

Imlo usulini Umar ibn Xattob, Anas ibn Molik, Baro ibn Ozib, Abdulloh ibn Amr, Mug'ira ibn Shu'ba kabi sahobalar ham qo'llagan bo'lsalar-da, ushbu metodni doimiy ravishda hadis yozdirish orqali tartibli tarzda qo'llagan ilk sahoba Vosila ibn Asqo' bo'lganligi ko'zga tashlanadi (Xatib al-Bag'dodiy, II, 55). Eng keng qamrovda esa bu usulni muhaddis Ibn Shihob az-Zuhriy tomonidan amalga oshirilgan, deb taxmin qilinadi (M. Mustafu al-A'zamiy, II, 350). Manbalarga ko'ra, u xalifa Hishom ibn Abdulmalikning farzandlaridan biriga 400 ta hadisni imlo qilgan (Qoziy Iyoz, s. 243–244).

Imlo usuli vaqt o'tishi bilan keng tarqaldi. Zuhayr ibn Muoviya al-Ju'fiy va Affon ibn Muslim kabi ba'zi muhaddislar faqat shu yo'l bilan hadis qabul qilishni odat qilganlar. Abu Bakr ibn Abu Shayba esa 20 ming hadisni imlo usulida yozib olishni hadis ilmida yetuklik sharti deb hisoblagan (as-Sam'oniyy, s. 11; M. Mustafu al-A'zamiy, II, 354).

Muhaddislarning imlo majlislariga katta qiziqish bo'lgan. Ba'zi majlislarda minglab odamlar qatnashganligi rivoyat etilgan (Xatib al-Bag'dodiy, II, 53, 138; as-Sam'oniyy, s. 17–18, 96–97, 112). Bu kabi ulkan qiziqish sababli, majlislarda joy yetishmovchiligi yuzaga kelgan, natijada qat'iy rioya qilinadigan tashkiliy tartib-qoidalar ishlab chiqilgan. Masalan: talabalar qanday holatda o'tirishi kerakligi, mustamliyning hadis yozishni boshlashdan oldin tayyorlashi lozim bo'lgan materiallari, yozish tartibi va uslubi aniqlab berilgan (Xatib al-Bag'dodiy, s. 13–19, 29–36).

Biroq vaqt o'tishi bilan bu majlislariga bo'lgan qiziqish sustlasha boshladi. Ibn Salohdan so'ng uzoq muddat davomida hech qanday imlo majlisi o'tkazilmagan. Zaynuddin al-Iroqiy 795-hijriy (1393-milodiy) yilda ushbu an'anani qayta jonlantirdi va vafotiga qadar 416 ta imlo majlisi tashkil etdi. Uning uslubini o'g'li Ibn Iroqiy, Ibn Hajar al-Asqalaniy, Qosim ibn Qutlubug'a, Shamsuddin as-Sahaviy va Suyutiy davom ettirdilar. Keyinchalik esa ushbu an'ana deyarli butunlay yo'qolib ketdi, faqat ba'zi istisno holatlar bundan mustasno.

Imlo majlislari odatda haftada bir marta o'tkazilgan: juma masjidida, markaziy maydonlarda, madrasalarda yoki dorulhadislarda. Majlislar juma namozidan so'ng, seshanba kuni peshindan oldin yoki asr namozidan keyin o'tkazilishi ma'qul deb topilgan.

Hadis imlo qiluvchi olim, majlisdan oldin yozdirajak hadislarini tanlab olgan va zarurat tug'ilsa ularni yozib qo'ygan. Bu ish "tahrij al-hadis" deb nomlangan bo'lib, uni ishonchli talabalar ustozlarining kitoblaridan chiqarib tayyorlaganlar.

Majlisga ko'p odam kelgan holatlarda olim bir yoki bir necha mustamliy tayinlagan. Hadis tarixida ilk mustamliy tayinlagan olim sifatida Shu'ba ibn Hajjoj tilga olinadi. Kajjiyning majlisida 40.000 dan ortiq kishi qatnashgan va u yerda yetti nafar mustamliy bo'lgan.

Talabalar yozayotgan qog'ozlarining yuqori qismiga: imlo qiluvchi ustozning ismi, imlo bo'layotgan joy va vaqtni yozib qo'yganlar. Majlisda odam ko'p bo'lsa, ustoz va mustamliy

balandroq joyda o'tirgan. Majlis Qur'on o'qish bilan boshlangan, keyin mustamliy ustozni tanishtirgan va nimani rivoyat qilishini so'ragan.

Shundan so'ng ustoz, yoddan yoki yozma manba asosida sanadlari (Hadis roviylar zanjiri) bilan birga hadislarni imlo qilgan, kerakli joylarda sharhlar bergan, majlis oxirida esa hikoya va she'rlar bilan yakunlagan. Keyin, ustoz matni va talabalar yozuvi taqqoslab chiqilgan, xatolar bo'lsa tuzatilgan.

Imlo asosida qabul qilingan hadislar "amla 'alayya" (أَمْلَى عَلَيَّ), "haddasana (haddasani) imlo'an" kabi siyg'alar bilan rivoyat qilingan.

Material va usullar. Ushbu tadqiqotda hadis ilmining tarixiy taraqqiyotida muhim o'rin egallagan imlo an'anasining kelib chiqishi, shakllanishi va institutsional tizimga aylanishi tarixiy-manba tahlili usuli asosida o'rganildi. Adab va ta'limdagi o'rni ko'proq ta'kidlangan, ammo bu borada cheklangan miqdorda tadqiqot olib borilgan majlislar aslida hadis va madaniyat tarixi nuqtayi nazaridan chuqur tadqiqotlar olib borish imkonini beruvchi keng qamrovli mavzudir. Shu jihatdan, mavzuni faqatgina hadis usuli va adabiga oid manbalar bilan chegaralab qolmasdan, tarix, tarojim (biografiya), rijol (roviylar tanqidi), shahar tarixi, ansob (nasabnoma) va mashoyix (shayxlar ro'yxati) turkumidagi asarlar, kitobat, kotiblik va yozuv materiallariga oid ensiklopedik manbalar, amoliy (dars majlislari) adabiyoti hamda hadis ta'limi tarixiga doir tadqiqotlar tahlil manbalarimiz qatoriga kiritildi. Mavzu bilan bog'liq holda ilk davrlardan to zamonaviy davrgacha bo'lgan taraqqiyoti, turli din va madaniyatlardagi aks sado va turlari ham imlo majlisi fenomeni doirasida ko'rib chiqildi. G'arbda amalga oshirilgan tadqiqotlar va xorijiy tillardagi manbalardan ham imkon qadar foydalanishga harakat qilindi.

Mavzuga oid yozilgan mustaqil asarlar orasida imlo usuli va odobiga doir Sam'oniy (vaf. 562/1166)ning Adabu'l-imlo' va Xatib al-Bag'dodiy (vaf. 463/1071)ning al-Jomi' li axloqi'r-roviy nomli asarlari muhim o'rin tutadi. Mazkur ikki asar mavzuga oid batafsil ma'lumotlarni o'z ichiga olishi va umumiy bo'lsa-da, ma'lum bir konseptual doira chizib berishi sababli tadqiqotimizda asosiy manbalardan biri sifatida tanlandi. Imlo faoliyatining mohiyati, qoidalari, muallim, shogird va mustamliy (eshituvchi)lar nuqtayi nazaridan odobi, yozuv qoidalari va materiallari asosiy mavzu yo'nalishlari qatorida ko'rib chiqildi.

Hadis usuli manbalari ilk davrlardan boshlab ushbu mavzu bo'yicha murojaat qilingan asosiy asarlar sirasiga kiradi. Biroq ularning har biri mavzuga yondashishda bir xil uslubda emas: ba'zi manbalarda faqat ma'lum boblar doirasida yoki zarurat tug'ilganda imloga oid fikr, rivoyat yoki latifalar keltirilgan bo'lsa, ayniqsa mutaahhirin (keyingi) davr manbalarida mustaqil sarlavhalar ostida yoki adab boblarida imlo bilan bog'liq batafsil ma'lumotlarga duch kelinadi. Bu borada ayniqsa al-Muhaddisu'l-fosil, al-Ilmo', Tadribu'r-roviy, Fathu'l-mug'is, Muqaddimatu Ibn

as-Saloh kabi asarlarda kengroq ma'lumotlar mavjud bo'lib, umuman olganda usul manbalarida mavzuga odobiy jihatdan yondashilayotganligi diqqatga sazovordir.

Metodologik yondashuv sifatida manba tahlili, komparativ tarixiy analiz, ilmiy-ta'limiy amaliyot tahlili hamda kontent tahlil usullaridan foydalanildi. Turli davrlarda imlo metodining qo'llanish uslublari, ustoz va talabalar o'rtasidagi ilmiy-muloqot jarayonlari, ijtimoiy institutlar (mumli, mustamli) va ularning roli tarixiy kontekstda o'rganildi.

G'arbda amalga oshirilgan tadqiqotlar imlo faoliyatini islom dunyosidagi tasnif (ta'lif) harakatlarining rivojlanishidagi o'rni va kitob tarixi nuqtayi nazaridan ko'rib chiqishlari bilan ajralib turadi. Bu tadqiqotlarda masalaga faqat ta'lim yo'nalishida yondashilmaydi, balki mavzuga keng qamrovli, multidisipliner bir nuqtai nazardan qaraladi. Ayniqsa, Max Weisweiler tomonidan yozilgan "Das Amt Des Mustamli In Der Arabischen Wissenschaft" (Arap ilmiy a'xanalarida mustamli lavozimi) nomli maqola ilgari ko'p e'tibor qaratilmagan mustamli (eslovchi, qayd qiluvchi talabalar) lavozimidan harakat bilan arab adabiyoti tarixining shakllanish jarayonini ochib berishga uringani jihatidan alohida e'tiborga loyiqdir. Mazkur tadqiqot ma'lum bir ilm sohasiga emas, balki ushbu faoliyatning arab madaniyatidagi o'rniga e'tibor qaratgan. Shu sababli, imlo usulini islomiy fanlarning har biri kontekstida tahlil qilish imkoniyati cheklangan. Asarda asosan arab tili va adabiyoti doirasida mavzu yoritilgan.

Holbuki, imlo majlislari va mustamlilik vazifasi, shu sababli arab adabiyoti tarixining taraqqiyoti hadis ilmidan mustaqil tarzda tasavvur etib bo'lmaydi. Chunki ushbu majlislarning asosiy qismi aynan hadis ilmi sohasida tashkil etilgan va hadis adabiyoti ko'p jihatdan ana shu usul orqali shakllangan.

Gregor Schoelerning og'zaki va yozma madaniyat doirasida mavzuga yondashgan tadqiqotlari bevosita majlislarni markazga qo'ymasada, hadislarning yozma shaklga o'tish jarayonini yoritganligi bilan dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Imlo majlislariga ta'lim va madaniyat tarixi nuqtayi nazaridan yondashgan zamonaviy tadqiqotlar orasida Adam Mez, George Makdisi, Johannes Pedersen (The Arabic book), Jonathan Berkey (The Transmission of knowledge in medieval Cairo), Michael Chamberlain (Knowledge and social practice in medieval Damascus) kabi mualliflarning asarlari turli yondashuvlarni ilgari surganligi sababli alohida ilmiy ahamiyatga egadir.

Muhokama va natijalar. Lug'aviy jihatdan "imlo" so'zi "أَمْلَى" (amla) fe'lidan olingan bo'lib, uning masdari "إِمْلاء" (imla') shaklida keladi. Bu so'zning ko'plik shakli esa "أَمَالِي" (amali) bo'lib, yozdirilgan yoki qayd qilingan matnlar majmuasini bildiradi. Agar bu fe'l "أَمَلَّ" (ammala) shaklida qabul qilinsa, uning masdari "إِمْلال" (imlol) ko'rinishini oladi. Lug'aviy ma'noda imlo — yozdirish, qayd qilish shuningdek, muhlat berish yoki vaqt tanitish ma'nolarida ham ishlatiladi.

Qur'on-i karimda bu har ikki ma'noda kelgan oyatlar mavjud. Masalan, "وَأْمَلِي لَهُمْ إِن كَيْدِي مَتِينٌ" (al-A'rof, 7:183) oyatida "men ularga muhlat beraman, albatta, Mening hiylam quvvatlidir" degan mazmun mavjud bo'lib, bu yerda imlo — muhlat berish ma'nosida ishlatilgan.

Boshqa bir oyatda, "Orangizda bir kotib adolat bilan yozsin" — "فَلْيُمْلِلْ وَلِيُّهُ بِالْعَدْلِ" (al-Baqara, 2:282) degan ifoda orqali esa imlo — yozdirish ma'nosida ishlatilgan. Terminologik nuqtayi nazardan imlo — bir kishining atrofida qilargana yoddan yoki yozma manbaga asoslangan holda biror matnni yozdirishi (qayd qilishi) jarayonini bildiradi. Bu metod asosan hadis ilmida keng qo'llanilgan bo'lsa-da, boshqa fan sohalarida — xususan, arab tili, tafsir va usul al-fiqh (fiqh asoslari)da ham ishlatilgan.

Masalan, Abu Bakr Muhammad ibn al-Qosim al-Anbariy (vaf. 328/940) tomonidan yozilgan, tilshunoslik, nahv, lug'at, she'riyat va adabiyot, shuningdek tafsir, hadis va axbor masalalariga oid turli yozuvlardan iborat "al-Amoli" (yoki: al-Majolis, al-Mujolasot) nomli asari bu yo'nalishga doir muhim namunadir.

Shuningdek, Abu Ali al-Qoliy (vaf. 356/967) tomonidan Andalusda hijriy 330–350 yillar (941–961 milodiy) oraliq'ida imlo usulida yozdirilgan va o'sha davr adabiy muhitini yorituvchi "al-Amoli" asari ham ushbu kontekstda zikr etiladi.

Hadis ilmi kontekstida imlo — muhaddisning atrofida talabalar yoki hadis tinglash uchun to'planganlarga hadislarni yoddan yoki kitobdan yozdirish amaliyotini anglatadi[Suyutiy, s. 2/574]. Ya'ni, bu metodda ustoz (muhaddis) rivoyat qilish huquqiga ega bo'lgan hadislarni bir yoki bir necha talabaga, odatda kitobsiz, yoddan yoki ba'zida yozma manba asosida yozdiradi.

Bu metod hadisni qabul qilish yo'llari ichida eng afzali[Hatib Bag'dodiy, 2,55;] hisoblangan "samo" (سمع) usuli tarkibiga kiradi[Suyutiy, s.1. 443]. Chunki boshqa usullar bilan taqqoslaganda, imlo metodida ham ustoz, ham shogird faol pozitsiyada bo'ladi[Shahaviy, s.157].

Hadisni tahammul qilish (ya'ni, uni qabul qilish, yod olish, yozib olish) jarayonida ustoz va talaba zimmasiga yuklangan bu faol ishtirok sababli, imlo usuli hadis ilmi tarixida ishonchli va maqbul metodlardan biri sifatida qaralgan.

Hadisni yozdirishga oid ilk urinishlarni Payg'ambar Muhammad (s.a.v.) davrigacha olib borish mumkin bo'lsa-da, bu faoliyatlarni tizimli deb emas, balki mavjud ehtiyojni qondirishga qaratilgan individual harakatlar deb baholash kerak bo'ladi. Chunki ilk islomiy davrda og'zaki va yozma rivoyat metodlari birgalikda qo'llanilgan bo'lib, imlo faoliyatining aniq boshlanish sanasini belgilash mushkuldir.

Shunga qaramay, hadis tarixi kontekstida ilk imlo majlislari hijriy II (VIII) asrdan boshlab kuzatiladi, va ayniqsa bu asrning ikkinchi yarmidan boshlab hadis yozdirish keng qamrovli va nisbatan tartibga solingan holda amalga oshirilgan, deb aytish mumkin.

Darhaqiqat, Xatib al-Bagʻdodiy (vaf. 463/1071) sahobalardan boʻlgan Vosila ibn Asqoʻ al-Laysiy (vaf. 85/704) oʻz hadis taʼlim majlislarida ushbu metodni qoʻllaganini taʼkidlaydi. Zamonaviy hadisshunos Muhammad Mustafa al-Aʼzamiy (vaf. 2017) esa Vosilani texnik jihatdan ilk bor imlo majlisi tashkil qilgan sahoba sifatida eʼtirof etadi [Aʼzamiy. s.18].

Demak, ushbu yozdirish (imlo) amaliyoti hadis matnlarini saqlab qolish va ularni ishonchli tarzda rivoyat qilish yoʻlida hadis tarixidagi eng dastlabki tizimli urinishlardan biri sifatida qaraladi.

Hadisni yozdirish uchun maxsus tashkil etilgan ushbu yigʻinlarga “imlo majlisi” deyiladi. Dastlab bunday majlislar urfdan kelib chiqqan oddiy shaklda boʻlib oʻtgan boʻlsa-da, vaqt oʻtishi bilan ular shakllanib, oʻziga xos qoidalarni ishlab chiqqan va doimiy ilmiy anjumanlar shakliga kelgan.

Vosila ibn Asqoʻ bilan sahobalar davrida boshlangan bu anʼana tobeʼinlar davrida muhaddislar orasida keng qamrovli eʼtiborga sazovor boʻlgan.

Masalan, quyidagi yirik muhaddislar imlo metodidan foydalanganlar: Ibn Shihob az-Zuhriy (vaf. 124/742), Husayn ibn Abdurrahmon (vaf. 136/753), Ashʼas ibn Abdulmalik (vaf. 142/759), Lays ibn Abu Sulaym (vaf. 148/765), Aʼmash (vaf. 148/765). Baʼzi muhaddislar esa faqat imlo yoʻli bilan hadis qabul qilishni shart qilganlar, bu esa imlo majlislarining ilmiy maqomini oshirgan. Masalan: Abu Haysama Zuhayr ibn Muoviya al-Kufiy (vaf. 173/789) faqat imlo metodidan foydalanishni hadis rivoyatida asosiy mezon deb bilgan. Abu Usmon Affon ibn Muslim al-Ansoriy (vaf. 220/835) esa ustoz Hammod ibn Salama (vaf. 167/784)dan imlodan boshqa usulda hadis yozmaganliklarini bildiradi.

Ibn Jurayj (vaf. 150/767) Basraga kelganida, Abul-Musanna Muoz ibn Muoz at-Taymiy (vaf. 196/811) undan imlo yoʻli bilan hadis yozib berishini soʻragan, chunki ular imlodan boshqa usulni qabul qilmas edilar. Yana, Abu Bakr ibn Abu Shayba (vaf. 235/850) shunday degan: "Kim 20 ming hadisni imlo yoʻli bilan yozib olmagan boʻlsa, u oʻzini ilm (hadis) sohibi deb hisoblmasin." [Samʼoniy. s. 11]

Bu soʻzlar imlo metodining hadis ilmidagi yuksak maqomini va keng tarqalganligini yaqqol koʻrsatadi. Bunday yuqori maqomning tabiiy oqibati sifatida imlo majlislari savodxonlik darajasi oshgani sari, yozuv madaniyati rivojlangani sari keng ijtimoiy va intellektual eʼtibor bilan kuzatilgan.

Milodiy IX (hijriy III) asrga kelib, hadis imlo majlislari katta eʼtibor va keng jamoatchilik ishtirokiga sabab boʻldi. Shu darajada ommalashdiki, Imom al-Buxoriy (vaf. 256/870)ning mashhur ustozlaridan biri boʻlgan Osim ibn Ali ibn Osim (vaf. 221/836) tomonidan Bagʻdodning Rusofa masjidi yaqinidagi keng xurmozor maydonda oʻtkazilgan imlo majlisi misli koʻrilmagan darajada qizgʻin oʻtgan.

Manbalarda keltirilishicha, odamlar keng hududga tarqalib o'tirgan, Osim esa balandroq joyda joylashgan edi. Shuncha odam yig'ilganki, ko'pchilik uni eshita olmas edi, shu sababli hadislarni qayta-qayta takrorlash talab qilingan. Masalan, u Lays ibn Sa'd (vaf. 175/791) dan rivoyat qilingan bir hadisni to'rt marta emas, o'n to'rt marta takrorlagan. Shunga qaramay, uzoqroqdagi guruhlar hali ham eshita olmagan. Ba'zi kishilar eshitganlarini aniq yozib olish maqsadida xurmo daraxtlariga chiqqan [Sam'oniyy. s.16-17, Suyutiyy. s.575].

Bu imlo majlisida Abbosiy xalifasi Mu'tasim (vaf. 227/842) ham ishtirok etgan va majlisda ishtirokchilarning umumiy soni 120 ming kishi bo'lganligi rivoyat qilinadi [Sam'oniyy. s.19-21].

Xuddi shunga o'xshash holatni Abu Muslim al-Kajjiy (vaf. 292/904) tomonidan G'asson maydonida o'tkazilgan imlo majlisida ham ko'rish mumkin. Unda 40 ming kishidan ortiq kishi ishtirok etgan. Ishtirokchilarning ko'pligi sababli ba'zilar faqat tik turgan holda hadislarni yozishga muvaffaq bo'lganlar.

Shuningdek, Solih ibn Muhammad al-Bag'dodiy (vaf. 293/906) o'z xotiralarida Imom Buxoriy Bag'dodga kelganida o'tkazgan imlo majlisida mustamli (ustozning so'zlarini baland ovozda yetkazuvchi) bo'lib ishtirok etganini va 20 mingdan ortiq odam bu majlisda qatnashganini eslatadi [Xatib Bag'dodiy. s.55].

Bunday yirik miqyosdagi majlislarda ishtirokchilarning uzoq masofada joylashgani, ayrim so'zlarni eshitmasligi yoki noto'g'ri tushinishi ehtimoldan xoli emas edi. Bu holat imlo asosida shakllangan sahifalar (sahifa), jildlar (juz') va umuman bu metodning ishonchliligi haqida shubhalar uyg'otishi mumkin.

Biroq tarixiy manbalarda qayd etilishicha, bunday majlislarda qatnashganlarning barchasi hadis yozish maqsadida kelmagan, ularning barchasi ham savodli bo'lmagan, ba'zilar esa "nazzor" (nazorat qiluvchi, kuzatuvchi) sifatida qatnashganlar.

Shuningdek, quyidagi muhim ilmiy-amaliy tamoyillar hadisning ishonchliligi va imlo majlislari samaradorligini kafolatlagan:

- Talabalar imlo tugagach yozgan daftarlarini o'zaro taqqoslashgan.
- Yozishdagi malakasi past bo'lganlar malakali kishilardan yordam olgan.
- Nusxalarni ko'paytirish (nusxa olish)da maxsus mutaxassislar — "varroq" (nusxalovchi kotiblar) xizmatidan foydalanilgan.
- Oxir-oqibatda, yozilgan matnlar imlo qilgan olimga topshirilib, uning tomonidan tasdiqlanib, xatoliklar tuzatilgan.

Bu usullar imlo majlislarining hadis rivoyati jarayonida ishonchli manba bo'lib xizmat qilganini ko'rsatadi.

Manbalarda davlat arboblari va siyosiy elita ham bunday ilmiy majlislarga katta qiziqish bildirgani qayd etiladi. Masalan: Umaviyyalar xalifasi Hishom ibn Abdulmalik (vaf. 125/743) hadis

imlosiga alohida e'tibor qaratgan va o'z katibi orqali farzandlariga 400 ta hadisni imlo qilgan. Abbosiy xalifalari Mansur, Horun ar-Rashid va Ma'mun ham imlo majlislarida shaxsan ishtirok etganlar. Saljuqiylar vaziri Nizomulmulk (vaf. 485/1092) esa shaxsan o'zi hadis imlosi bilan shug'ullangan. U Bag'doddagi Nizomiya madrasasi va Jome' al-Mahdiy masjidida maxsus imlo majlislari tashkil qilgan. Siyosiy elita tomonidan bu ilmiy anjumanlarga e'tibor berilishi, ijtimoiy e'tirof va rag'batga sabab bo'lgan, bu esa imlo majlislarining nufuzi va madaniy ijtimoiy rolini kuchaytirgan.

Imlo metodi hijriy II (milodiy VIII) asrning o'rtalaridan boshlab hadis rivoyati jarayonida muntazam ravishda qo'llanila boshlagan bo'lsa-da, hijriy X (milodiy XVI) asrga kelib asta-sekin o'z ahamiyatini yo'qota boshladi. Bu holatga bir qator omillar sabab bo'lgan, xususan:

- Hadislarni yoddan aytuvchi hofizlar sonining kamayishi,
 - Bevosita ustozlardan emas, balki kitoblardan hadis olishga bo'lgan ishonchning ortishi,
 - Hadislar isnodlarining (roviylar zanjiri) cho'zilib ketishi,
 - Rivoyat materiallarining katta qismi yozma holga (mudavvan) o'tib bo'lishi,
 - Imlo talab qiladigan talabalar sonining keskin kamayishi
- kabi sabablar ta'sir ko'rsatgan.

Bundan tashqari, davrning ilmiy va madaniy dunyoqarashi o'zgarishi ham imlo an'anasining zaiflashishiga bevosita ta'sir qilgan, deyish mumkin.

Imlo usuli faqat bir metod emas, balki u qo'llanilgan davrning hadis ilmidagi yondashuvini ham aks ettirgan. Hijriy IV (milodiy X) asrgacha bo'lgan davrda imlo majlislarida mavzu birligiga e'tibor berilmasdan, mavjud barcha hadislar qanday bo'lsa, to'liq va sanadlari bilan birga rivoyat qilish maqsad qilingan.

Bu davrda o'tkazilgan imlo majlislari orqali:

- Hadislar to'liq sanadlar bilan keyingi avlodlarga yetkazilgan,
- Isnoddagi roviylarning jarh va ta'dil (tanqid va ishonchlilik baholashi) o'tkazilgan,
- Hadis matnlaridagi g'arib (noaniq yoki kam ishlatiladigan) lafzlar izohlangan.

Bu esa hadisni to'laqonli va ilmiy asosda o'rganish an'anasining shakllanishini ko'rsatadi. Hijriy V (milodiy XI) asrga kelib esa, imlo majlislari asta-sekin mazmunijihatdan o'zgarishga yuz tutdi. Endi bu majlislarda:

- Asosan fiqhiy mazmunga ega hadislar,
- Ayniqsa, amal fazilatlariga doir hadislar imlo qilishning asosij mavzusi bo'lib qoldi.

Bu esa, jamiyatda axloqij tuzatishlar kiritish, diniy ongni oshirish va odamlarda solih amallarni amalga oshirishga da'vat qilish maqsadida hadislarni tanlab imlo qilish yondashuvining yuzaga kelganini ko'rsatadi.

Keyingi asrlarda, hadis sharhlari (sharh, izoh, ta'liq) keng yoyila boshlagan davrda, imlo faoliyatining mazmuni ham o'zgarib, bevosita hadis matnini emas, balki uning sharhini imlo qilish ko'proq ustuvorlik kasb eta boshladi. Bu esa, ilmiy yondashuvning hadis matnidani ko'ra uning ma'nosi va sharhiga qaratilganligini ko'rsatadi.

Xulosa. Imlo — hadislarni saqlash va ularni ishonchli tarzda rivoyat qilishni asos qilgan usul sifatida, hadisni qabul qilish yo'llari (turuq al-tahammul) orasida e'tiborli va maqbul metodlardan biri sifatida baholangan. Bu metod, hadis tarixida og'zaki rivoyatdan yozma madaniyatga o'tish jarayonida rivoyat materialini asrab qolish hamda uni keyingi avlodlarga yetkazish nuqtayi nazaridan muhim funksiyani bajargan. Aynan imlo majlislari orqali muhaddislar rivoyat qilish huquqiga ega bo'lgan hadis materiallarini ishonchli vosita orqali talabalariga yetkazish imkoniga ega bo'lganlar. Shu bilan birga, ushbu usulning ishonchligi, avvalo, ustoz va talabalar o'rtasidagi ishonch munosabatiga bog'liq ekani qayd etilishi lozim. Zero, imlo metodidagi asosiy ishonch omili — bu ustoz bilan shogirdning bevosita muloqotda bo'lishidir. Ayniqsa, ommaviy va keng qamrovli imlo yig'inlarida ustoz bilan shogird o'rtasida bevosita aloqa bo'lmasa, ayniqsa yozuv borasida tajribasiz bo'lgan talabalar tomonidan yozilgan matnlar asosiy nusxa bilan taqqoslanib, tuzatilmasa, xatolar muqarrar bo'lishi mumkinligi aniqlangan.

Hadis adabiyoti tahlilida imlo faoliyati natijasida vujudga kelgan amoliy turkumidagi asarlar o'ziga xos tuzilma va tasnif metodologiyasiga ega emasligi kuzatildi. Masalan, musnadlar roviylarning nomiga qarab, jome' va sunanlar esa mavzular atrofida tuzilgan bo'lsa-da, amoliy toifasiga mansub asarlarda bunday qat'iy tartib prinsipi kuzatilmaydi. Shuningdek, ushbu asarlar nomlanishida ham aniq mezon yo'qligi aniqlanib, asarlar odatda imloga tushgan rivoyatlar hajmiga qarab amoliy, majlis, juz' kabi nomlar bilan yuritilgan.

Imlo metodi, muayyan tarixiy bosqichda hadis ilmining metodologik va nazariy yondashuvlarini aniqlashda ishonchli vosita bo'la olishi qayd etildi. Hijriy IV (milodiy X) asrgacha bo'lgan davrda imlo majlislari asosan hadislarni sanadlari bilan birga to'liq holatda rivoyat qilishni maqsad qilgan bo'lsa, V (XI) asrga kelib bu majlislarda fihiy mazmundagi rivoyatlarni birlashtirish, ayniqsa, axloqiy jihatdan ta'sirli hadislarni imlo qilish orqali jamiyatda ma'naviy tarbiya va axloqiy uyg'oqlikni shakllantirish maqsadi ustuvorlik kasb etgan.

Yakuniy xulosa sifatida aytish mumkinki, Bag'doddan Hirotgacha, Damashqdan Nishopurgacha bo'lgan geografik hududlarda faoliyat yuritgan muhaddislar va ularning ilmi bilan yaqindan bog'liq bo'lgan ilm-fan elitalari deyarli o'n asr davomida "hadis" tushunchasi atrofida birlashgan. Imlo majlislari faqat hadis ilmining rivojiga emas, balki adabiy va madaniy meros tarkibidagi turli nomlar bilan ataluvchi matnlar orqali hadis adabiyotiga ham muhim hissa qo'shgan. Ushbu xulosalardan kelib chiqqan holda quyidagi tavsiyalarni aytish mumkin:

1. Imlo usuli faqat tarixiy jarayon sifatida emas, balki hadisni rivoyat qilish, qabul qilish va saqlashdagi o'ziga xos metodologik yondashuv sifatida qayta baholanishi lozim. Shuning uchun ham zamonaviy hadisshunoslik tadqiqotlarida ushbu metodga alohida e'tibor qaratilishi zarur.

2. Tarixiy manbalarda uchraydigan amoliy turkumiga oid asarlar hozirgi kungacha yetarlicha tizimli ravishda tadqiq qilinmagan. Ushbu asarlarning mavzu, sanad, matn va sharh unsurlari asosida zamonaviy tahliliy metodlar bilan o'rganilishi, hadis adabiyotining muhim manbalarini ilmiy muomalaga kiritishga xizmat qiladi.

3. Imlo majlislari faqat ilmiy metod emas, balki diniy-ma'naviy hayotning bir qismi, keng ijtimoiy qatlamlar va siyosiy elita ishtirokidagi madaniy anjumanlar sifatida ham qaralishi lozim. Bu jihat, hadis ilmining jamiyatda tutgan o'rni va uning intellektual hayotdagi ta'sirini chuqurroq anglash imkonini beradi.

4. Imlo metodining Hijriy X (milodiy XVI) asrdan keyin asta-sekin tarixiy sahnadan chekinishiga sabab bo'lgan omillar – xotira madaniyatining pasayishi, yozma manbaga tobelikning kuchayishi, va ilmiy-madaniy paradigmalarning o'zgarishi – bugungi zamon axborot muhitidagi o'xshash tendensiyalar bilan solishtirilib tahlil qilinishi lozim.

5. Imlo faoliyatining tarixi faqat hadisshunoslik doirasida emas, balki islom tafakkuri, ilmiy ta'lim institutlari, yozuv madaniyati, davlat–diniy aloqalar nuqtayi nazaridan ham tadqiq qilinishi tavsiya etiladi. Bunday yondashuv, imlo merosining ko'p qatlamli ilmiy ifodalarini yuzaga chiqarishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ahmad ibn Hanbal. al-Musnad. thq. Shu'ayb al-Arnaut - Odil Murshid. 50 jilt. Bayrut: Muassasatu'r risola.
2. al-A'zamiy, M. M. (1980). Dirosat fi'l-hadis'n-nabavi (Vols. I–II). Bayrut: al-Maktab al-Islamiy.
3. Aydinli, Abdullah. "İmlâ". Türkiye Diyanet Vakfı İslam Ansiklopedisi. 22/225-226. İstanbul: TDV Yayınları, 2000
4. al-Bag'dodiy, H. (1983). al-Jome' li-axloqi'r-rovi va adabi's-somi' (M. at-Tahhon, Vols. I–II). Riyod: Maktabat al-Ma'orif.
5. al-Hatib, M. A. (1987). al-Muhtasaru'l-vajiz fi 'ulumi'l-hadis. Bayrut: Dor al-fikr.
6. al-Hatib, M. A. (1973). Majolisu'l-hadis va adabu rivoyatih. Adva'u's-sari'a, 4, 172–184.
7. al-Iroqiy, Z. al-Alfiyya (M. H. al-Iroqiy al-Husayniy, Vol. II). Bayrut: Doru'l-kutubi'l-ilmiyya.

8. al-Iroqiy, Z. (1981). at-Takqiyid va'l-izoh (Abdullah M. 'Usmon). Bayrut: Dor al-Kutub al-Ilmiyya.
9. al-Qodiy 'Iyoz. (1978). al-Ilmo' (S. A. Shakr). Qohira: Maktabat Dor al-turos.
10. al-Sahaviy, Sh. (1969). Fathu'l-mug'is ('Abdullah M. 'Usmon, Vol. II). Qohira: al-Maktaba al-salafiyya.
11. al-Sam'oniyy, Abdulkarim. (1952). Adabu'l-imlo' va'l-istimlo' (M. Weisweiler, Ed.). Leiden: Brill.
12. al-Suyutiyy, J. (1959). Tadribu'r-roviy ('Abdolvahhob Abdullatif, Ed., Vol. II). Qohira: al-Maktaba al-salafiyya.
13. al-Suyutiyy, J. al-Muzhir fi 'ulumi'l-lug'a va anvo'iha (M. A. Jodalmavlo et al., Eds., Vols. I-II). Qohira: Dor ihyo' al-kutub al-arabiyya.
14. Efil, Y. (1991). Hadis imlâ meclisleri (Yüksek lisans tezi, MÜ Sosyal Bilimler Enstitüsü).
15. Hatiboğlu, İ. (1991). Hadis usûlü kaynaklarına göre hadis öğrenim ve öğretim âdâbı (Yüksek lisans tezi, MÜ Sosyal Bilimler Enstitüsü).
16. Juynboll, G. H. A. (1993). Mustamlî. In Encyclopaedia of Islam, Second Edition (Vol. VII, pp. 725–726). Leiden: Brill.
17. Okiç, M. T. (1959). Bazı hadis meseleleri üzerinde tetkikler. İstanbul: İstanbul Üniversitesi Yayınları.
18. Weisweiler, M. (1951). Das Amt des Mustemli in der Arabischen Wissenschaft. Oriens, 4, 27–57.
19. Muborakfuriy, A. (1967). Tuhfatu'l-ahvoziy ('Abd al-Rohman M. Usmon, Ed., Vol. I). Qohira.